



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 20-sentabr

469-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentyabrdagi PQ-322-son qarori ijrosi haqida”gi 426-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentyabrdagi PQ-322-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 426-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentyabrdagi PQ-322-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 17-sentyabrdagi 426-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-sentyabrdagi PQ-322-son qarori bilan:

2024-yil 24-yanvar kuni Pekin shahrida imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida madaniy boyliklarni o‘g‘irlash, yashirin qazish va noqonuniy olib kirish va olib chiqishning oldini olish to‘g‘risidagi Bitim tasdiqlanganligi;

Madaniy meros agentligi mazkur xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan mazkur xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida Xitoy tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirgandan keyin uning qoidalari bajarilishi ustidan nazoratni ta‘minlashi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**